HUJJAT NAMUNALARI · 2026

Tahrirlanadigan Word fayl



TAVSIFNOMA

tavsiyanoma va tarjimai hol

Ish, maktab va OTM uchun namunalar

5 ta tayyor namuna

+ foydali iboralar va qoidalar

- Sariq joylarni almashtirasiz — tayyor
- Word fayl, tahrirlanadigan

Muallif: Dilibek Mannobjonov

TEXORA
Dilibek

Tavsifnoma, tavsiyanoma va tarjimai hol: tarkib

Bu faylda eng koʻp soʻraladigan **5 ta hujjat namunasi** tayyor holda berilgan. Har biri alohida betda — **sariq bilan belgilangan joylarni** oʻz maʼlumotlaringizga almashtiring, keraksiz jumlalarni oʻchiring.

№	Hujjat	Kim yozadi	Bet
1	Tavsifnoma (ish joyidan)	Tashkilot rahbari yoki boʻlim boshligʻi	3
2	Oʻquvchiga tavsifnoma (maktab)	Sinf rahbari, direktor tasdiqlaydi	4
3	Talabaga tavsifnoma (OTM)	Guruh murabbiysi, dekan tasdiqlaydi	5
4	Tavsiyanoma	Sizni yaxshi biladigan rahbar yoki ustoz	6
5	Tarjimai hol	Oʻzingiz, birinchi shaxsda	7

Farqi nimada?

- **Tavsifnoma** — tashkilot nomidan beriladigan rasmiy baho: shaxs qanday ishlaydi yoki oʻqiydi, xulqi qanday. Muhr bilan tasdiqlanadi.
- **Tavsiyanoma** — aniq bir shaxsning (rahbar, ustoz) shaxsiy tavsiyasi: «bu odamni ishonch bilan tavsiya etaman». Yozgan kishining aloqa maʼlumoti koʻrsatiladi.
- **Tarjimai hol** — oʻzingiz yozadigan qisqa hayot yoʻlingiz: tugʻilgan joy, oʻqish, ish, oila.

[Tashkilot to‘liq nomi]

TAVSIFNOMA

[Tashkilot nomi] [bo‘lim nomi] [lavozimi] [Familiya Ism Otasining ismi]ga

[Familiya Ism Otasining ismi] [1990]-yilda [Andijon viloyati]da tug‘ilgan. Ma’lumoti oliy, [2012]-yilda [o‘quv yurti nomi]ni [mutaxassislik] mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan.

U [2018]-yildan buyon [tashkilot nomi]da ishlab kelmoqda: dastlab [birinchi lavozimi], [2021]-yildan esa [hozirgi lavozimi] lavozimida faoliyat yuritmoqda.

Ish davomida o‘zini [o‘z sohasini puxta biladigan, mas’uliyatli va tashabbuskor] xodim sifatida ko‘rsatdi. Unga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajaradi. [Asosiy yutuqlari: masalan, bo‘lim hisobotlarini raqamli shaklga o‘tkazishda faol qatnashgan.]

Malakasini muntazam oshirib boradi: [2024]-yilda [malaka oshirish kursi nomi]ni tamomlagan. [Kompyuter dasturlari, chet tili kabi qo‘shimcha ko‘nikmalari].

Jamoada hurmatga ega, hamkasblari bilan munosabati [samimiy va do‘stona]. Mehnat intizomiga qat’iy rioya qiladi, [intizomiy jazo olmagan].

Tavsifnoma [qayerga] taqdim etish uchun berildi.

[Rahbar lavozimi] _____ [I.F. Familiya]

[sana] M.O‘.

TAVSIFNOMA

[Viloyat, tuman] [N]-son umumiy o‘rta ta’lim maktabining [9-«A»] sinf o‘quvchisi [Familiya Ism Otasining ismi]ga

[Familiya Ism] [2011]-yilda tug‘ilgan. Maktabimizda [1]-sinfdan buyon o‘qib keladi.

O‘qishi. O‘zlashtirishi [yaxshi]. [Matematika va informatika] fanlariga alohida qiziqadi, [tuman fan olimpiadasida 2-o‘rinni olgan]. [Qiyinroq kechayotgan fanlar va ular bo‘yicha qilinayotgan ish].

Xulqi va intizomi. Darslarga o‘z vaqtida keladi, sababsiz dars qoldirmaydi. Maktab ichki tartib qoidalariga rioya qiladi. Kattalarga hurmatli, tengdoshlariga [mehribon va yordamga tayyor].

Jamoatchilik ishlari. [Sinf sardori / maktab o‘quvchilar kengashi a’zosi]. Maktab tadbirlarida [faol qatnashadi].

Qiziqishlari. Bo‘sh vaqtida [kitob o‘qish, shaxmat, sport bilan shug‘ullanadi]; [to‘garak nomi] to‘garagiga qatnaydi.

Oilaviy sharoiti. [To‘liq oilada tarbiyalanadi; ota-onasi farzandining o‘qishi bilan doimiy qiziqib boradi].

Tavsifnoma [qayerga] taqdim etish uchun berildi.

Sinf rahbari _____ [I.F. Familiya]

Maktab direktori _____ [I.F. Familiya]

[sana] M.O‘.

TAVSIFNOMA

[Oliy ta’lim muassasasi nomi] [fakultet] [yo‘nalish] [3]-kurs talabasi [Familiya Ism Otasining ismi]ga

[Familiya Ism] [2004]-yilda tug‘ilgan. [2023]-yilda [o‘qishga kirish asosi: davlat granti / to‘lov-kontrakt] asosida talabalikka qabul qilingan.

O‘qish davomida [a’lo va yaxshi] baholarda o‘qib kelmoqda; o‘rtacha bahosi (GPA) — [4,2]. [Ilmiy to‘garak, maqola yoki tanlovlardagi ishtiroki].

Guruhda [guruh sardori] vazifasini bajaradi. Fakultet va institut miqyosidagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol qatnashadi.

Odob-axloq qoidalariga rioya qiladi, o‘qituvchilar va kursdoshlari orasida hurmatga ega. [Intizomiy jazo olmagan].

Tavsifnoma [qayerga] taqdim etish uchun berildi.

Guruh murabbiysi (tyutor) _____ [I.F. Familiya]

Fakultet dekani _____ [I.F. Familiya]

[sana] M.O‘.

[Tashkilot nomi], [manzil], tel.: [+998 __ ___ __ __]

TAVSIYANOMA

Men, [Familiya Ism Otasining ismi], [tashkilot nomi] [lavozimi], [Familiya Ism Otasining ismi]ni [lavozim / o‘qish dasturi nomi]ga tavsiya etaman.

[Familiya Ism] bilan [2022–2025]-yillarda [birga ishlaganmiz / uning rahbari bo‘lganman]. Bu davrda u [asosiy vazifalari] bilan shug‘ullandi.

Uning eng kuchli tomonlari: [1) kasbiy bilimi — masalan, ma’lumotlarni tahlil qilishni yaxshi biladi; 2) mas’uliyati — topshiriqlarni muddatidan oldin bajaradi; 3) jamoada ishlay olishi].

Alohida natija sifatida [aniq misol: masalan, u tayyorlagan hisobot tizimi tufayli bo‘limdagi ish vaqti sezilarli qisqardi]ni ta’kidlab o‘taman.

Ishonamanki, [Familiya Ism] [yangi joyda] ham o‘z bilim va tajribasini muvaffaqiyatli qo‘llaydi. Qo‘shimcha ma’lumot uchun men bilan [telefon / e-pochta] orqali bog‘lanish mumkin.

Hurmat bilan,

[lavozimi] _____ [I.F. Familiya]

[sana]

TARJIMAI HOL

Men, [Familiya Ism Otasining ismi], [1996]-yil [12-mart]da [Andijon viloyati, Asaka tumani]da [xizmatchi / dehqon] oilasida tug‘ilganman. Millatim — [o‘zbek].

[2003–2014]-yillarda [tuman] [N]-son umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘qiganman. [2014]-yilda [o‘quv yurti nomi]ga [mutaxassislik] yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishga kirib, [2018]-yilda tamomlaganman.

Mehnat faoliyatimni [2018]-yilda [tashkilot nomi]da [lavozim] sifatida boshlaganman. [2021]-yildan hozirgi kungacha [tashkilot nomi]da [lavozim] lavozimida ishlab kelmoqdaman.

[Qo‘shimcha ta’lim, malaka oshirish, sertifikatlar: masalan, 2024-yilda ingliz tili bo‘yicha B1 sertifikatini olganman.]

[Harbiy xizmat: bo‘lsa — yillari va joyi; bo‘lmasa bu xatboshini o‘chiring.]

Oilaliman. Turmush o‘rtog‘im — [Familiya Ism Otasining ismi], [yil]-yilda tug‘ilgan, [ish joyi va lavozimi]. Farzandlarim: [ism, tug‘ilgan yili].

Otam — [Familiya Ism Otasining ismi], [yil]-yilda tug‘ilgan, [ish joyi / nafaqada]. Onam — [Familiya Ism Otasining ismi], [yil]-yilda tug‘ilgan, [ish joyi / uy bekasi].

Sudlanmaganman. Hozirda [manzil] manzilida yashayman.

[sana] _____ [I.F. Familiya]

Yaxshi tavsifnoma yozish qoidalari

- **Aniq bo‘ling:** «yaxshi xodim» o‘rniga «oylik hisobotlarni muddatidan oldin topshiradi» kabi misol keltiring.
- **Tartib:** shaxsiy ma’lumot → o‘qish/ish yo‘li → kasbiy sifatlar → shaxsiy sifatlar → jamoatchilik ishlari → «… taqdim etish uchun berildi».
- **Hajm:** odatda bir bet; ortiqcha maqtov ishonchni kamaytiradi.
- **Rasmiylashtirish:** tashkilot blankasida yoki yuqorida tashkilot nomi bilan; rahbar imzosi va muhr (M.O‘. — muhr o‘rni).
- **Tarjimai hol** birinchi shaxsda («Men … tug‘ilganman») va xronologik tartibda yoziladi, oxirida sana va imzo qo‘yiladi.

Foydali iboralar

Kasbiy sifatlar	Shaxsiy sifatlar
o‘z sohasini puxta biladi	mas’uliyatli va intizomli
topshiriqlarni o‘z vaqtida, sifatli bajaradi	samimiy, xushmuomala
tashabbuskor, yangi g‘oyalar taklif qiladi	jamoada hurmatga ega
zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanadi	talabchan, ammo adolatli
tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyati yuqori	o‘z ustida doimiy ishlaydi
murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qiladi	halol va vijdonli
yosh mutaxassislarga ustozlik qiladi	yordamga doim tayyor
hujjatlar bilan ishlashda aniq va puxta	stressga chidamli, xotirjam

Tez-tez xatolar

- Ism-familiya yoki sanalar pasportdagidan farq qiladi
- «… taqdim etish uchun berildi» jumlasi yoki sana unutilgan
- Imzo, lavozim yoki muhr yo‘q
- Hamma uchun bir xil, shablon matn — aniq misol yo‘q

Boshqa bepul va pullik materiallar

- Bepul: obyektivka blankasi va namunasi, 8 ta ariza namunasi, «Konstitutsiya va davlat ramzlari» qo‘llanmasi
- Pullik: ishga kirish testlari tayyorlov to‘plamlari (Argos, Ichki ishlar, Bojxona, Maktab maslahatchisi)
- Soff.uz — muallif sahifasi: **Dilibek Mannobjonov** · Telegram: **t.me/texora8** · @texora7

TEXORA

Kanalga obuna bo‘ling

Telegram

t.me/texora8

Instagram

@texoraa8

Dilibek